

GOSPITAL SHAROITDA DO'STLIK MUNOSABATI O'QUVCHILARNING  
IJTIMOIYLAHISHINING ASOSIY BO'G'INI

*Baubekova Aksungul Polatovna*

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab"  
davlat ta'lim muassasasi Qoraqolpog'iston Respublikasi filiali psixologi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada gospital sharoitida ta'lim olayotgan o'quvchilarning ijtimoiylashish jarayonida do'stlik munosabatlarining o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Do'stlik munosabatlari bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ruhiy barqarorlikni ta'minlash va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishda qanday ahamiyat kasb etishi yanada do'stlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beruvchi pedagogik-psixologik yondashuvlar orni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Gospital ta'lim, do'stlik, munosabat, bola, ota-ona, pedagog, psixolog, kasalxona, muhit.

**Annotation:** This article discusses the role and significance of friendship relationships in the socialization process of students receiving education in a hospital setting. It explores how friendship relationships contribute to the development of a child's social skills, ensure psychological stability, and enhance self-confidence. Furthermore, the article addresses the importance of pedagogical and psychological approaches that facilitate the formation of friendship relationships in this unique educational environment.

**Keywords:** Hospital education, friendship, relationship, child, parent, pedagogue, psychologist, hospital, environment.

### **Kirish**

XXI asr kuch bilan rivojlanib borayotgan texnologiyalar asri. Texnologiyalar rivojlanishi bilan bir qatorda har bir sohada imkoniyat darajalari ham kengayib bormoqda. Har bir sohaning tagida insonning qanchalik darajadagi ilmi ekanligi yotibdi aslida. Ta'lim sohasi har qanday inson hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan narsalardan bittasi. Barcha ta'lim sohalari singari gospital ta'limning ham o'rni katta. 2022-yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tamonidan qabul qilingan "Bolalar gemotologiyasi onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi bu sohaning qanchalik darajada ahamiyatli ekanligini belgilab berdi.

Qarorga muvofiq bugun yurtimizda "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi tashkil etilib o'z faoliyatini olib bormoqda. Gospital ta'lim uzoq muddat davolanayotgan bolalarning hayotga ijtimoiy moslashishi ularning maktabgacha ta'lim

va umumta'lim muasasalarida ta'limni davom ettirish tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgan soha hisoblanadi. Kasalxonaga uzoq muddat davolanish uchun kelgan bolalar birinchi o'rinda kasalxona muhitiga moslashish jarayonini boshidan o'tkazadi va bolalarning bunday muhitga moslashish ancha qiyin kechadi. Bolalar kasalxonada davolanish davrida ba'zan o'zini yolg'iz va noqulay his qilishlari mumkin. Chunki o'z uyidan, yaqinlaridan uzoqlashish, kasalxonadagi muhit, tibbiy protseduralar va to'g'ri muolajalarni qabul qilish, rejimga amal qilish va o'girroq holatda bo'lsa ximiya terapiyalarni qabul qilish va boshqada cheklovlarning borligi bolalar uchun biroz yoqimsiz holat hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda bolalar va o'smirlar har tamonlama qo'llab-quvvatlashga muhtojlik sezadi. Bunday hollarda ularga ota-onaning, yaqinlarining, shifokor va pedagog-psixologning qo'llab-quvvatlashi bilan birgalikda albatta o'zaro do'stlik munosabatlar, tengdoshlari bilan muloqat qilishning ham yordami katta.

### **Psixologik yordamning ro'li.**

Gospital ta'limda bolalarga kasallik va reabilitatsiya bilan kurashishda psixologik yordamga e'tibor qaratiladi. Psixologik yordam har bir jarayon bilan uzviy bog'liqdir. Gospital ta'limda psixolog nafaqat o'quvchining ta'lim jarayoniga moslashishiga yordam beradi, kasallik yoki uzoq muddat davolanish natijasida yuzaga keladigan stress, qo'rquv, tushkunlik holatlarini bartaraf etishga, bolalardagi emotsional holatini barqarorlashtirish, ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash va motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Psixologlar ish borasida bolalar bilan individual va guruh suhbarlar olib boradi, bolalarning ruhiy holatini yaxshilashga mos keladigan turli hil terapiyalardan foydalanadilar. Ruhiy holati yaxshilangan bolada boshqalarga, tengdoshlariga, tashqi olamga bo'lgan qiziqishi motivatsiyasi ortadi.

Ko'rib turganingizdek mavzuyimiz bekorga gospital sharoitda do'stlik munosabati o'quvchilar ijtimoiylashuvining asosiy bo'g'ini mavzusi emas. Asosan bu sohada do'stlik munosabatlarning ahamiyati juda katta. Chunki bu yerda nafaqat bolalarning o'zaro do'stligi, balki ota-ona va bola o'rtasidagi do'stlik, pedagog-psixolog xodim va bolalarning do'stligi, shuningdek, pedagog xodim va ota-ona o'rtasidagi do'stlik ham nazarda tutilmoqda.

**Ijtimoiylashuv** – o'quvchilarning jamiyatda o'z-o'rnini topishi va atrof-muhit bilan muvofiqlikda yashashga o'rganish jarayoni hisoblanadi. Gospital sharoitda bu jarayon biroz sekinlashishi mumkin. Chunki ular jamiyatdan biroz uzoqlashib ko'proq yopiq muhitda yashaydilar. Gospital ta'limda do'stlik munosabatlarini shakllantirishning roli ahamiyatli. Masalan, bolalar dars mashg'ulotlariga qatnashish, zakovat o'yinlari, guruh psixologik mashg'ulotlar, bayram tadbirlarda birga bo'lishi tufayli bir-birlariga ancha yaqin do'st bo'lib qolishadi. Keyin bir-birlarini yaxshi tanib, qiziqishlari orzulari, oilasi, do'stlari va hayotidagi eng zor voqealar to'g'risida suhbatlashadilar. Yanada tengdoshlari bilan bir-birlarini ko'ralmagan

paytlarda, telefon va sotsiyal tarmoqlarda hesh kimga aytolmagan ichki his-tuyg'ulari, kechirmalarini, hozirgi holatini do'stiga gapirib berish orqali biroz engil tortishi mumkin. Bu suhbatlashuvlar bolalar va o'smirlarni o'z-o'zidan bir-biriga yaqinlik do'stlik rishtalarini paydo qila boshlaydi. Do'stlik aloqlari o'quvchilarning ruhiy holatini yaxshilashga, bir-biriga dalda bo'lishga, tushinishga, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga ham yordam beradi, shuningdek gospital sharoitdagi qo'rquv va xavotirni yengishga, stressni bartaraf qilishga ham yordam beradi. O'zaro do'stlik hissi ularning yolg'izligini kamaytiradi, bolalarda o'z-o'ziga ishonch ortadi, ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi va kelajakda yangi do'stlar orttirish osonlashadi, kasallik bilan bog'liq qiyinchiliklarga nisbatan bardoshlilik kuchayadi.

**Bolalar va ota-ona o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash** davolanish jarayonida bolaning psixologik va hissiy holatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Ota-ona bolaning eng ishongan tirgagi, u bor joyda bola o'zini havfsiz sezadi. Ota-ona va bola o'rtasidagi iliq munosabatlar bolaning o'zini xavfsiz, ishonchli va qo'llab-quvvatlanganligini his qilishga yordam beradi. Bolaning ota-ona bilan ochiq va samimiy muloqoti uning hissiy qiyinchiliklarini yengishga ko'maklashadi. Gospital sharoitda ota-onaning mehri va e'tibori bolaning davolanishdagi motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Bunda ota-ona har kuni farzandi qiziqadigan mavzularda gaplashib, uning yoshiga mos bo'lgan voqealarni, hikoyalarni, boshlang'ich sinf yoki bog'cha yoshidagi bolalar bolsa ertak va boshqada moshg'ulotlarni olib borishi lozim.

**Pedagog xodim va bolalar o'rtasidagi do'stlik** munosabatlari bolalarning ta'lim jarayonidan uzilmasligini ta'minlash, ruhiy qo'llab-quvvatlash va ularning umumiy rivojlanishiga yordam berishda muhim o'rin tutadi. Pedagog-psixologlar bolalarning hissiy holatini inobatga olgan holda moslashuvchan yo'nalishni qo'llaydi, o'yinlar, vizual materiallar va ijodiy mashg'ulotlar orqali ta'lim beradi. Shuningdek pedagog xodim ta'lim jarayonini qiziqarli va motivatsion ruhda olib borish uchun badiiy va ijodiy mashg'ulotlarni tashkil etadi. Har bir bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos dasturlar tayyorlaydi. Ular shu soha mutaxassisleri bo'lganligi uchun ham har bir bolaga individual yondashib, ularning boshqalar bilan ham munosabatlarini to'g'irlashi mumkin.

Va nihoyat gospital sharoitda **pedagog xodimlar va ota-onalar o'rtasidagi do'stona munosabatlar** bolaning ta'lim olish va davolanish jarayonini yanada samarali qilish uchun juda muhim. Bu munosabatlar bolaning jismoniy va psixologik holatini yaxshilashga shuningdek, ta'lim jarayonida birgalikda ishlashga yordam beradi. Chunki bolaning qanday xarakterga ega ekanligi haqida pedagogda yetarlicha ma'lumotlar bo'lmasligi mumkin yoki pedagogning salohiyati tufayli xatto farzandining ota-ona ham bilmaydigan jihatlari yuzaga chiqishi mumkin, Bular esa bolaga yaxlit yordam ko'rsatishda muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki do'stlik munosabatlari bu insonlar o'rtasidagi

o‘zaro ichonch, hurmat, yordam va o‘zaro tushinilishga asoslangan munosabatdir. Do‘stlik munosabatlari hayotga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi. Umuman olganda, bu do‘stlik turlari bir-biri bilan xuddi zanjir kabi bog‘liqdir. Gospital sharoitda do‘stlik munosabati o‘quvchilarning ijtimoiylashuvida muhim o‘rin tutadi, chunki u o‘quvchilarning o‘zaro munosabati, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy ko‘nikmlarini rivojlantirishga yordam beradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, gospital sharoitida ta‘lim olayotgan o‘quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonida do‘stlik munosabatlari beqiyos ahamiyatga ega ekanligi mazkur maqolada tahlil qilindi. Uzoq muddatli kasallik tufayli odatiy ijtimoiy muhitdan uzilib qolgan bu bolalar uchun do‘stlik aloqalari nafaqat zerikishni bartaraf etish va vaqtni mazmunli o‘tkazish vositasi, balki ularning psixologik holatini yaxshilash, ruhiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Do‘stlik munosabatlari orqali o‘quvchilar o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, hamdardlik hissini tuyadilar, o‘z muammolari bilan bo‘lishish va yechim topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning yolg‘izlik va izolyatsiya tuyg‘ularini kamaytiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va kasallik bilan kurashish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Gospital sharoitida do‘stlik munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishda pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro muloqotni rag‘batlantirish, guruhli mashg‘ulotlar va o‘yinlar tashkil etish, ijobiy ijtimoiy muhit yaratish kabi pedagogik-psixologik yondashuvlar do‘stlik aloqalarining paydo bo‘lishi va mustahkamlanishiga ko‘maklashadi.

Shunday qilib, gospital ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham e‘tibor qaratish zarur. Do‘stlik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish orqali gospital sharoitidagi ta‘lim o‘quvchilarning to‘liqqonli shaxs sifatida shakllanishiga, ularning ruhiy va jismoniy salomatligini tiklashga va kelajak hayotga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar gospital ta‘limning samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning ijtimoiy ehtiyojlarini yanada to‘liq qondirishga yo‘naltirilishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta‘lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta‘lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil maydagi 234-son

qarori.

2..O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori.

3.Arxiv.uz "O'smirlar o'rtasidagi do'stlikning psixologik ahamiyati"

4.. “Ta'lim muassasalarida tengdoshlar munosabatlari" Toshkent 2005 S.Ashurova

5. **G'oziyev E.G.** Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2012